



MAKTAB FORMASI HAQIDA NIZOM/ O`QUVCHILAR YAGONA FORMASI SHAKLLARI

Umumiy qoidalar

Maktab formasi to'g'risidagi Nizomning maqsadi o`quvchilarda mazkur maktabga tegishlilik hamda bundan mag'rurlanish hissini shakllantirish. Bundan tashqari, maktab formasi shakllarini belgilash o`qivchilarni Invento O`zbek Xalqaro Maktabi hamjamiyatining to'la huquqli a'zolari sifatida so'zsiz tan olish holatining muhimligini kuchaytirish, shuningdek, ularga maktabimizni namoyish etayotganligi bilan faxrlanish imkonini beradi.

Nizomning amal qilishi

- *Dress-kod shartlari o`quv kuni davomida, hamda maktabga/maktabdan kirib-chiqish davrida, shuningdek maktab ekskursiyalari davomida qo'llaniladi.*
- *Kiyish majburiy hisoblangan yozgi va qishki maktab sport formalari ham ko'zda tutilgan.*
- *Maktabda taqishga ruxsat etilgan yagona buyumlar – quloqlardagi sirg'a va soatdan iborat.*
- *Sochni ekstremal ranglarga (masalan, yashil, pushti yoki siyohrang), shuningdek, ekstremal soch turmaklariga (masalan, erokez) ruxsat berilmaydi.*
- *Maktabda tirnoqlar uchun shaffof lakdan tashqari makiyajga yo'l qo'yilmaydi.*
- *Yelka chizig'idan pastroq bo'lgan sochlar yuz ochiq turishi uchun yig'ilgan bo'lishi shart.*
- *Maktab formasini kiymagan o`quvchilar maktab ekskursiyalarida ishtirok etishga yoki maktab taqdimotlariga yo'l qo'yilmaydi, maktab direktori tomonidan shaxsan ruxsat beriladigan alohida holatlar bundan mustasno.*
- *Ota-onalar/homiylar, agar ma`lum sabablar bilan ushbu Nizom shartlarini bajarish ularning farzandlari uchun imkoniyati bo'lmasa, maktab direktoriga yozma shaklda murojaat qilishlari mumkin. Bunday holatlarga kattalarning uzoq muddatga qayergadir ketganligi, qisqa muddatda formani/uning elementlarini sotib olish mumkin bo'lmagan holat, omborxonada zarur formaning yo'qligi, shuningdek, bolalar salomatligi bilan bog'liq, og'ir oilaviy holatlar, diniy yoki madaniy urf-odatlar bilan bog'liq sabablar kiritiladi.*
- *Agar yangi kelgan o`quvchi maktabga maktab formasiz kelgan bo'lsa, yoki formaning qandaydir elementi yo'q bo'lsa, ota-ona qisqa muddatda o'z bolasi uchun formani **to'liq** sotib olishi shart (3-betga qarang).*

- Agar o`quvchilar maktabga maktab formasini to`liq kiyib kelmasa, maktab bu haqda ota-onalarga xabar beradi. Bunday holat uch marta takrorlansa, uchinchi marta o`quvchi maktabga kiritilmaydi. Mazkur holatda ota-onalarga vaziyatdan chiqishning ikki usuli taklif etilmoqda: uyga qaytish, formani kiyish va maktab formasida bolani maktabga olib kelish yoki maktabda qo`shimcha forma to`plamini sotib olish.

Shaxsiy buyumlar va kiyim-kechaklar - Markirovka

Barcha kiyim-kechak buyumlari va shaxsiy buyumlar o`quvchilar, ota-onalar va o`qituvchilar uchun ularni qidirishni/joylashtirishni osonlashtirish maqsadida imzolangan/markerlangan bo`lishi lozim.

Maktab formasini maktab Administratsiyasi bo`limidan olish mumkin, maktab formasi uchun mas`ul shaxs – Jasmina Sattarova, j.sattarova@invento.uz.

Mazkur Nizomni yangilash:

Mazkur Nizom 2022-yilning Avgust oyida ishlab chiqilgan va 2023-yilning Avgust oyida qayta ko`rib chiqiladi

✓ MAKTAB UCHUN RUXSAT ETILGAN O`QUVCHI FORMASI SHAKLLARI

